



LEKSIKADA XUSUSIY MA'NO MUAMMOSI

Choriyeva Oysuluv

Termiz davlat universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: **D.A.Ergasheva**

Annotatsiya: mazkur maqolada xususiy ma'no umumiy, oraliq ma'nolar bilan qiyoslanadi, ularning o'xshash va farqli jihatlari, undagi muammolar tahlil ostiga olinadi.

Kalit so'zlar: grammatik ma'no, umumiy ma'no, xususiy ma'no, oraliq ma'no, yondosh ma'no.

Abstract: in this article, the general meaning is compared with private, intermediate meanings, similar and different aspects of which, problems in it, are brought under analysis.

Key words: grammatical meaning, general meaning, private meaning, intermediate meaning, adjacent meaning.

Аннотация: В данной статье общее значение сравнивается с частным, промежуточным, анализируются их сходства и различия, проблемы в нем.

Ключевые слова: грамматическое значение, общее значение, частное значение, промежуточное значение, сопутствующее значение.

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligining barcha sathlarida hodisalarni umumlashtirish bo'yicha jiddiy tadqiqotlar vujudga keldi. Umumlashtirishning ko'p bosqichlilik xarakterida ekanligi, ayniqsa, morfologiya va sintaksis bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu bevosita N.Mahmudov, H.Ne'matov, A.Nurmonov, R.Sayfullayeva, M.Abuzalova, S.Nazarova va Sh.Shahobiddinova kabi nazariyotchi tilshunoslar nomlari



bilan bog‘liq. Ular ishlarida nafaqat nutqiy hodisalarni lisoniy umumlashtirishga, balki lisoniy bosqichning o‘zida ham xususiy va umumiy jihatlarni farqlashga alohida e‘tibor qaratiladi. Oraliq holatlarning morfologik sathda oraliq grammatik ma‘no(241;243), sintaksisda nutqiy sathdan yuqorida va umumiy sintaktik qolipgacha qavatlanadigan oraliq qoliplar sifatida (6;175;174) talqin qilinishi buning yorqin dalilidir.

Hozirgi zamon fani erishgan ulkan yutuqlar o‘rganish manbaining ilgari noma‘lum bo‘lgan qonuniyatlarini yanada to‘la va chuqur tushunishda ayrim hodisalarni umumlashtirish, ularning sistemaviy va struktural xossalarini yoritishning naqadar samarali ekanligini ko‘rsatmoqda. Alohidaliklardan xususiyliklar orqali umumiyliklarga o‘tish aslida yagona vujud bo‘lgan borliq bo‘laklarini yaxlit idrok qilish, yaxlitlikning sistemaviy qonuniyatlarini ochishga intilish natijasidir. Inson tafakkurining oddiydan murakkabga, birinchi mohiyatdan ikkinchi, uchinchi va hokazo mohiyatlarga chuqurlashib borishi, biroq ulardan hech qaysisining pirovard mohiyat bo‘la olmasligi haqidagi qonuniyat, tabiatning bo‘laklarga bo‘linishi hamda butunliklarga birlashtirilishining, shuningdek, hodisalarni umumlashtirishning benihoya davom eta borishi borliqni yaxlit tizim sifatida idrok etishning bardavomligidan dalolat beradi. Hozirgi o‘zbek tilshunosligi o‘zining nazariy bosqichida nutqiy hodisalarni gnoseologik qonun va kategoriyalar asosida umumlashtirish, ularni o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlikda olib o‘rganish vazifalari ustida ish olib borayotganligi bilan xarakterlanadi. Aslida har qanday fan o‘zining qaysi bosqichida bo‘lmasin, qandaydir darajada hodisalarni umumlashtirish bilan band bo‘ladi. Shu ma‘noda o‘zbek tilshunosligining bosib o‘tgan yo‘lini umumlashtirishlardan mutlaq yiroq ham, uning bugungi holatini absolyut umumlashtirish bosqichi sifatida qarash ham xatodir. Hozirda baholanayotgan xususiyliklarni o‘rganish va umumlashtirishlar jarayoni mohiyatan nisbiy xarakterda bo‘lib, ular xususiyliklarni tavsiflash va hodisalarni umumlashtirishning turli darajalaridir.

Dialektikada umumiyliklar va yakkaliklar oralig‘ida turuvchi maxsusliklar o‘ziga xos dialektik tabiati bilan alohida diqqatga sazovor bo‘lib, u umumiyliklarning nisbiyligiga



ishora qiluvchi muhim omildir. Tilshunos L.Shcherba bu hodisaning tildagi voqelanishiga e'tiborni qaratib, yozadi: «Esda tutish kerakki, chekka hodisalargina aniq va ravshan, xolos. Oraliq holatlar esa buning aksidir. Biroq ko'proq mana shu noaniqliklar, goh u, goh bu tomonga o'tib turuvchi hodisalar tilshunosning diqqat markazida bo'lmog'i va uni ko'proq qiziqdirmog'i lozim»(141,13). Demak, yaxlit idrok qilingan yakkalik va umumiylik munosabatida oraliq bo'g'inlar qarama-qarshi qutblar xossalarini o'zida birlashtirgan murakkablik sifatida namoyon bo'ladi.

Boshqa sath hodisalaridan farqli o'laroq, leksikada nutq hodisalarini umumlashtirish ancha ilgari boshlangan va bu borada keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, lug'aviy umumiylik semema miqyosigacha tiklangan, xolos. Umumlashtirishlar esa bir necha bosqichlilik xususiyati bilan xarakterlanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, semasiologiyaning bugungi holati o'zaro genetik bog'langan sememalarni yuqoriroq bosqichda umumlashtirish vazifasini ko'ndalang qo'ysa, bajarilgan semasiologik tadqiqotlarning muayyan tadqiqot metodologiyasidan xoli ekanligi hamda lisoniy hodisalarda zot va tajalli munosabatlarini oydinlashtirish zaruriyati manbalardagi sememalar talqini masalasiga tanqidiy yondashishni taqozo qiladi.

Lisoniy hodisalarga sistemaviy yondashuv, lisoniy mohiyatni zot sifatida idrok etish zaruriyati tadqiq jarayonini ham bevosita sistemaviy izchillik asosida qurishni taqozo qilar ekan, lug'aviy ma'noni umumlashtirish ham quyi muammolar yechimi asosida tashkil etilmog'i lozim bo'ladi. Shu boisdan tahlil karvonining ibtido bekati sifatida lug'aviy paradigma muammosini tanlash maqsadga muvofiq.

Leksema lisoniy birlik ekan, uning lisoniy yaxlitlikda ma'lum bir paradigmadan, katta tizimga kiruvchi ichki tizimchadan joy olmog'i shartlangan bo'ladi. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida til leksikasi qurilmasining sistemaviy tabiati, lug'aviy paradigmalarning ajratilishi, bu mikrosistemalarning talqini va qurilish qonuniyatlari o'zining mufassal talqiniga ega. Ayrim tadqiqotlar esa muammolarni umumlashtirish darajasida uddalangan bo'lsa, G.Ne'matova ishidagi umumlashtirilgan lug'aviy



mikrosistemaning iyerarxik qurilishini, lugʻaviy mikrosistema aʼzolari orasida gipo-giperonimik munosabatlar mavjudligini, leksemalarning sinonimik, graduonimik maʼno munosabatlari asosida qator tashkil qilishlarini ilk bosqichda nisbatan toʻliq qabul qilgan holda shuni taʼkidlash lozimki, yuqorida nomlari qayd qilingan tadqiqotchilarning ishlarida baribir sistem leksikologiyaning eng muhim vazifalaridan biri - leksemaning qaysi maʼnosi bilan lugʻaviy paradigmadan oʻrin olishi muammmosi yechimsiz, shuningdek, polisemantik leksemalar bir leksik paradigmadan oʻrin oladimi? degan savol javobsiz qolaveradi. Sistemaviy leksikologiya tomonidan bu masala kun tartibiga qoʻyildi va uning yechimi taklif etildi. Tadqiqotchi B.Qilichev [tana] leksemasi «gavda, jussa(telo)» sememasi bilan bir ([bosh], [boʻyin], [tana], [qoʻl], [oyoq]), «oʻsimlikning shoxlari tugagan joyidan ildizgacha boʻlgan qismi» sememasi bilan boshqa ([ildiz], [tana], [shox], [barg]) LMGsiga kirishini taʼkidlaydi(264). Biroq, baribir, leksema koʻp sememali boʻlsa va har xil LMGDan oʻrin olsa, bu bir lisoniy hodisami yoki har xil lisoniy hodisalarimi, shuningdek, bir leksema har xil sememalari bilan turli LMGlardan oʻrin olsa, qaysi paradigma shu leksema uchun asosiy hisoblanadi? degan muammolar oʻzining aniq yechimiga ega boʻlmasdan qolaveradi. Buning asosiy boisi shundaki, lisoniy birlikning mohiyati uning lisoniy tizim va tizimchalarda, paradigmalarda tutgan oʻrni bilan belgilanadi va hozirgacha leksemaning lisoniy tizimdagi oʻrnini belgilash intiutiv ravishda uning toʻgʻri deb ataladigan maʼnosi asosida amalga oshirilmoqda. Soʻzlarda sememalarni farqlash uchun bugungi kunga tayanch manba vazifasini, asosan, «Oʻzbek tilining izohli Lugʻati» oʻtab kelmoqda. Tadqiqotchilar H.Saidova(172), G.Neʼmatova(140), B.Qilichev(264) taʼkidlashganlaridek, «Oʻzbek tilining izohli lugʻati» dagi leksema sememalarining farqlanishi, ajratilishi va izohlanishiga fanning bugungi darajasi talablaridan kelib chiqqan holda munosabatda boʻlish adolatdan emas. Masalan, G.Neʼmatovanning hisoblariga koʻra, oʻsimlik nomlari leksemalari sharhida lugʻatda berilgan leksemalar umumiy miqdorining ayrimlarida «hosil» va «oʻsimlik» bir semema sifatida, baʼzilarida alohida-alohida sememalar sifatida qayd etilgan, baʼzilarida esa ulardan qaysidir biri qayd qilinib, ikkinchisi mutlaqo eslatilmaydi.



O'zbek tilshunosligida ko'chim asosidagi hosila ma'nolarning alohida sememani tashkil etish-etmasligi masalasi umuman qo'yilmagan. O'TIL ko'plab leksemalarda «o'simlik» va «hosil» alohida semema sifatida qayd etgani holda, o'simlik nomlarida bunday sememalarni maxsus tadqiq etgan A.Hojiyev M.Mirtojiyev ulardan birini to'g'ri, ikkinchisini hosilaviy, ko'chma ma'no sifatida belgilaydi(140). Demak, (olma) leksemasida "O'zbek tilining izohli lug'ati" «o'simlik» va «hosil» kabi ikki sememani ajratar ekan, A.Hojiyev bu hodisada sinekdoxik ko'chim, M.Mirtojiyev(140;117) metonimik ko'chim mavjudligini qayd etar ekan, taxmin etish mumkinki, tadqiqotchilar nazarida to'g'ri va ko'chma ma'nolar bir leksemaning turli sememalarini tashkil qiladi. Bu qanchalik asosli va nimalarga tayanadi? Demak, avvalo o'z va ko'chma ma'no atamaları mohiyatiga nazar tashlash lozim bo'ladi.

Tilshunoslikda fonemadan katta birliklarning nutqda muayyan kontekstual sharoitda xususiylik sifatida voqelanuvchi alohida ma'nolaridan tashqari, bu ma'nolarni birlashtiruvchi, xususiy ma'nolar uchun mohiyat maqomidagi umumiy ma'nolarni farqlash XX asrdan beri muhokama va munozara mavzusi bo'lib kelmoqda. O'z-o'zidan ma'lumki, tilshunoslikda xususiy ma'no va umumiy ma'no muammosi, uning qo'yilishi va yechimi falsafada umumiylik va xususiylik, tasavvufda zot va tajalli talqini bilan uzviy bog'liq. Falsafada ham, tasavvufda ham bu masala o'zining batafsil va, shu bilan birgalikda, rang-barang talqiniga ega. Muayyan fanlar tadqiq manbaida umumiy va xususiy jihatlarni ajratish va tasvirlash esa bevosita tadqiqotchining falsafiy dunyoqarashi, fanning taraqqiyot bosqichi hamda o'rganish manbaining tadqiq darajasiga bog'liq.

Fan har doim rang-barang hodisalarda umumiylikni o'rganishga harakat qiladi. Biroq, dialektik mantiq ta'kidlanganidek, umumiylik va xususiylikning o'zaro munosabati aqliy mavhumlikning hissiy aniqlikka munosabati sifatida tushunilmasligi lozim. Tadqiq manbaimizning murakkab tabiatliligi, shuningdek, kutilayotgan muammo yechimi uchun umumiylik va xususiylik, ularning o'zaro dialektik munosabati, nisbiy umumiylikni tiklashning ilg'or usullari o'ta zarur bo'lganligi bois uning amalga oshirilgan atroflicha va batafsil talqinini ehtiyoj va qo'yilgan maqsad darajasida sharhlash lozim deb o'ylaymiz.



Soʻz oraliq boʻgʻinlar haqida ketar ekan, uning oʻta nisbiyligi muammosiga alohida eʼtibor berish lozim boʻladi. Mavhumlashtirish jarayonida xususiyliklardagi umumiy jihatlar ajratilar ekan, bunda yuzaga chiquvchi oraliq boʻgʻinlar oʻzida yuqori va quyi nuqtalar xossalaridan jamlanganligi bois unda bir vaqtning oʻzida birlashtiruvchi va farqlovchi jihatlar birlashadi. U ana shu asosda oʻz mohiyatiga ega boʻladi. Mavhumlashtirish undan yuqorilaganda farqlarni, muayyanlashtirish undan quyilaganda umumiy jihatlarni nazardan soqit qiladi. Voqelanish jarayoni buning aksi boʻlib, belgilar tartiblanganda farqliliklar birinchi va oʻxshashliklar ikkinchi planga suriladi. «Bu esa, oʻz-oʻzidan, bevositalikdan bilvositalikka, mavhum bir xillikdan muayyan farqlarga oʻtish zarurati bilan belgilanadi»(37,1,253). Chunki «umumlashtirishdan tahlilga qaytish yagonalikdagi farqlarni aniqlash, farqlarning maʼlum maʼnoda urgʻu olishidir» (37,1,253). Boʻlaklarga boʻlish va oraliq boʻgʻinlar orqali xususiyliklarni koʻrishning mohiyati shundaki, «u bilimlarning tizimlilikini barqarorlashtiradi, manbaning tasnifini beradi, aloqa vositalarini muayyanlashtiradi, umumiy koʻringan har xil obʼektlar orasidagi farqlovchi belgi va ularning mavjudlik omillarini oydinlashtiradi»(51,201).

Oraliq boʻgʻinlar nafaqat umumlashtirish va voqelanishning uzluksizligi va izchilligini, balki, shu bilan birga, bu tizimning boshqa tizimlar bilan muqarrar aloqa va munosabatlarini ham namoyon etadi. Boshqacha aytganda, umumiyliklarning reallashuvdagi oraliq holatlarning farqlanishi va ajralishi bevosita boshqa tizimlar taʼsirida yuz beradi. Bu esa, oʻz-oʻzidan, kichik tizimning oʻz oʻrnida boshqa yondosh tizimlar bilan aloqalari orqali ular mansub makrotizimning yaxlitlikda mavjud boʻlish va hukm surish qonuniyatlarini ham ochishni kun tartibiga qoʻyadi.

Yuqorida lisoniy birliklarning umumiy maʼnosini ochish usullari (iyerarxik qurilishli paradigmalar asosida) koʻrib oʻtildi. Shu omil va usulni lugʻaviy birliklarga ham tatbiq qilgan holda, aytish mumkinki, til ijtimoiy-psixik hodisa boʻlganligi tufayli uning lugʻaviy birliklari umumiy maʼnosiga ham ijtimoiy-psixik tabiatli tuzilma sifatida qaramoq lozim. Shu asosda aytish mumkinki, leksema UGMsi leksema voqelanganda shu leksemaning



paradigmatik munosabatlari bilan bog'liq ravishda gavdalanuvchi, ong prizmasidan o'tgan borliq haqidagi axborot bo'lib, u sememalar orqali XGM sifatida voqelanadi. Semema esa UGMning o'ziga xos sintagmatik va sinonimik qurshovlariga ega bo'lgan turidir. XGM leksemaning nutqiy so'z sifatida aniq bir sintaktik qurshovda voqelanishidagi ma'nosi bo'lib, u leksema sememalaridan birining muayyan ko'rinishi sifatida yuzaga chiqadi va o'ziga xos nutqiy qurshovga ega bo'ladi. Monosemantik leksemalarda u, odatda, bitta, polisemantik leksemalarda esa, o'zaro genetik bog'langan birdan ortiq ko'rinishlarda bo'ladi. Nomemalari bir xil bo'lib, bu sememalar o'zaro genetik aloqada bo'lmagan hollarda omonimiya hodisasi yuz beradi.

Har bir semema o'ziga xos atash, ifoda va vazifa semalari majmuasidan iboratdir. Bunday semalarning turi, ularning o'zaro munosabati va birikish qonuniyatlari tilshunoslikda batafsil yoritilgan (164;165;272;117;126;138). Mana shunday tavsiflangan ULM leksik-semantik sathdan morfologik sathga o'tib formal jihatdan (lug'aviy shakllar bilan) shakllantiriladi va sintaktik qurilmalar tarkibidan o'rin olib, nutqda voqelanadi. Morfologik shakllanish jarayonida ko'p hollarda UGM sememalari farqlanadi. LSQlarda semema XGMLari namoyon bo'ladi. Demak, leksik-semantik sathda turgan UGM OGMLari, sintaktik sathda esa XGMLari farqlanadi.

Endi muayyan bir va ko'p sememali leksemalar UGMLari, OGMLari va XGMLari muayyan misollar tahlilida ko'rib o'tiladi. Dastlab o'zbek tilshunosligida bir necha marta alohida tavsiflangan (126;138;272) (yaxshi) leksemasining UGMsi ochilib, uning OGMLari va XGMLarda voqelanishi xususida bahs yuritiladi (yaxshi) leksemasi o'zbek lisoniy jamiyati a'zolari ongida «me'yoriy», «umumiy», «ijobiy», «shaxsiy» «baho» axborotini namoyon qiladi. Bu axborot tizimi bir necha tushunchalar majmuasi sifatida (yaxshi) leksemasining lisoniy tizimdagi o'rni va bu tizimdagi boshqa leksemalar bilan o'zaro munosabatlarida ochiladi.

Yuqoridagi jadvaldan ma'lum bo'ladiki, muayyan birikmalarda (yaxshi) so'zi har bir denotatning shu denotatga xos «umumiy», «ijobiy», «me'yoriy», «neytral», «shaxsiy»



«baho» belgilariga ishora qilib turadi. Har bir denotatning ijobiy, shaxsiy baho xususiyatlari alohida-alohida tushunchalar (denotatning substansial sifatleri aksidensiyalari, atributlari) bilan tilda alohida leksemalar orqali ham ifodalana olinishi sababli, bunday birikmalarda (yaxshi) leksemasi, jadvalda ko'rsatilganidek, rang-barang so'zlar bilan nutqiy ma'nodoshlik (kontekstual sinonimiya, kvazisinonimiya) (12;257;75) munosabatlarida bo'ladi. Lekin bunday ma'noviy rang-baranglik (yaxshi) leksemasining UGMsiga ham, OGMlariga ham mutlaqo aloqador emas. Jadvallarda ko'rsatilgan ot va fe'llar denotatlarini har bir denotatga xos bo'lgan muayyan xususiy, ijobiy xususiyatlar uchun (yaxshi) leksemasi UGMsi ham, OGMsi ham butunlay neytraldir. Shuning uchun aniqlanmish so'z atab kelgan denotatning ijobiy xislatlarini (hatto u ba'zan salbiy xususiyatga ega bo'lsa ham: yaxshi «firibgar») nutqda voqelantirib kelaveradi. Boshqacha aytganda, yuzlab turli-tuman nutqiy ma'no bo'yoqlari kashf qilinganda ham, minglab rang-barang so'z bilan nutqiy sintaktik munosabatga kirishganda ham (yaxshi) leksemasining birinchi OGMsi voqelanaveradi. Leksemaning ikkinchi OGMsi so'z-gapga xos qurshovlarda «ijobiy tasdiq so'z-gap» ma'nosida qo'llanadi: Yaxshi, boraman. Yaxshi, tez yetib keling. OGM voqelanganda (yaxshi) leksemasi (xo'p), (durust), (ma'qul) kabi so'z-gaplashgan, so'z-gaplashayotgan birliklar bilan nutqiy sinonimik munosabatga kirishadi. (yaxshi) leksemasining UGM, OGM va XGMlarining voqelanish xususiyatlarini ko'rish jarayonida yana bir narsaning guvohi bo'lish mumkin. Buning uchun (yaxshi) leksemasining har ikkala OGMsida uning lug'aviy shaklini o'zgartirish va (yaxshi) leksemasiga daraja shaklini qo'shib ko'rish lozim. Ayon bo'ladiki, 1-semema belgi darajasi lug'aviy shakli bilan erkin birikish qobiliyatiga ega. Shu amaliyotni 2- sememaning voqelanishiga doir keltirilgan misollar ustida amalga oshirilganda, bu sememasi asosida (yaxshi) leksemasi belgi darajalariga ishora qiluvchi lug'aviy shakllar bilan birika olmasligi lozim bo'ladi. Bu xususiyatlar asosida leksema sememalarini bir-biridan farqlovchi omil - morfologik lug'aviy shakl borligi ko'rinadi va semema ta'rifini ko'p sememali leksemalarda sememalarning o'zaro farqlanishiga bo'ysundirgan holda quyidagicha muayyanlashtirish



mumkin: leksemaning o'zaro genetik-ontologik aloqalar bilan bog'langan sememalarini o'ziga xos sinonimik qurshov bilan ko'p holda morfologik lug'aviy shakl farqlab turadi. Shu o'rinda leksik-semasiologik va lug'atchilik amaliyotidagi bir muammo ustida alohida to'xtalmoq lozim. Bu leksema sememalarini ajratishda tushunchalarga tayanish omilidir. Semasiologik va leksikografik amaliyotda bir so'zning sememalarini farqlash uchun, yuqorida sanalganidek, qat'iy lingvistik mezonlar bo'lmaganligi tufayli, sememalarni ajratish ko'p hollarda leksikograf ixtiyorida bo'lib, u, asosan, leksema XLMLarining nutqiy kontekstual sinonimlarga tayanib ish tutar edi. Shuning uchun lug'atlarda ajratilgan sememalarni (so'zlarning har bir ma'nosini) to'la ma'noda sememalar sifatida qarash mumkin emas. Zero, O'TILda, masalan, (ko'z) leksemasida ajratilgan 4 semema semasiologik tadqiqotlarda 1 sememaga(138,96), (dona) so'zida ajratilgan 5 semema ham 1 sememaga birlashtirilgan(138). Demak, sememalarni ajratishda tushunchalargagina tayanish yetarli emas. Sememalarni ajratishning qat'iy lisoniy qonuniyatlari mavjud bo'lib, ma'nolarni farqlashdagi bunday hodisalar sabablari leksema umumiy ma'nosining tadqiqotlar va lug'atlarda ochilmaganligida hamda sememalarni farqlashda qat'iy mezonlarga tayanish vaziyati yetilmaganligidadir. Lug'atchilik amaliyotida bu har ikkala omil muhim ahamiyatga egaligi lug'atlarda ko'p ma'noli deya ko'rsatiluvchi bir nechta leksemaning UGM, OGM va XGMLarini ajratish ustida to'xtalishni zarur qilib qo'yadi.

Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, turli xil qurshov va nutqiy vaziyatlarda voqelangan XGMLar o'zaro birlashtiruvchi va farqlovchi alomatlarga ega. Xususan, dastlab farqlarni e'tibordan soqit qilgan holda, XGMLardagi bir nechta muhim ma'noviy belgilarga diqqat qilish lozim bo'ladi. Bular (bosmoq) leksemasining har xil XGMSida takrorlanuvchi «harakat», «tegmoq», «og'irlik yoki kuch bilan», «biror narsa (yuzasi, sirti)ga» semalarining tajallilaridir. Tajallilar O'TILda qayd etilgan 1-, 2-, 3-, 12- XGMLar guruhlarida turli daraja, ko'rinishlarda voqelangan. Biroq guruhlardagi XGMLarda boshqa semalar tajallilari bir xil namoyon bo'lgan bo'lsa-da, mo'tadil «og'irlik/kuch bilan» semasi goh u, goh bu tomonga kuchaygan, buning hisobiga ikkinchi qutb kuchsizlangan holda



namoyon bo'lgan. 1-, 12- guruh XGMLarda sema voqelanishi «og'irlik bilan» tarzida, 2-tip XGMLarda esa «kuch bilan» tarzida xususiylashadi. 3-tur XGMLar o'ziga xos sifati («og'irlik/kuch bilan» semasi voqelanishida uning har ikki jihatining teng kuchliligi, shuningdek, atamaviy (termin)lik tabiati) bilan oldingi -1-, 12- va 2-tip XGMLardan ajratib turadi. Shuni takidlash lozimki, biz qayta guruhlangan (1-, 12-, 2-, 3-) XGMLar nafaqat o'ziga xos semantik tarkiblari, balki o'zlarini nutqqa olib kiruvchi sintaktik qurshovi hamda manodoshlari tizimi bilan ham farqli xususiyatlar kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. - T.: Fan, 1981 - 59 b.
2. Abramova M. A. Ucheniye Aristotelya o sumnosti. Izd. Moskov. un-ta, 1970. - 68 s.
3. Abuzalova M. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi. Filol. fanlari nomz. ... diss. avtoref. - T., 1994. - 21 b.
4. Bobokalonov R. O'zbek tilida semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar. Filol. fanlari nomz. ... diss. avtoref. - T. 2000 - 19 b.
5. Mahkamov N. Adabiy norma va pleonazm. - T.: Fan, 1998. -94 b.
6. Mahmatqulov S. O'zbek tilida predikativ sintagmaning transformatsiyasi. -T.: Universitet, 1998. - 264 b.
7. Mahmudov N. O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya. - T.: O'qituvchi, 1984 - 147 b.
8. Mahmudov N. Madaniy nutq muammolari // O'zbek tili Doimiy Anjumani 5-yig'ini materiallari. - T., 1999. -B. 7-18.
9. Mahmudov N., Mirtojyev M. Til va madaniyat. - T.: O'zbekiston, - 1992. -110 b.
10. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tili nazariy grammatikasi. - T.: O'qituvchi, 1995 - 228 b.
11. Mengliyev B.R. Morfologik vositalarning ma'noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari. Filol. fanlari nomz. ... diss. avtoref. -T., 1996. - 26 b.